

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasি" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Tairov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabihev</b>	
"Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik mакtabining ilk vakili.....	378
<b>P.A.Arslonzoda</b>	
Tasвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir .....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli .....	424
<b>X.T.Mirzaev</b>	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lichiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



UO'K: 394(575.1)

**O'ZBEKİSTON HÜDUDIDA MAHALLA XOS İLK BELGİLARNING PAYDO BO'LISHI  
VA BOSHQARUV AN'ANALARIGA DOİR MULOHAZALAR**

**РАЗМЫШЛЕНИЯ О ПОЯВЛЕНИИ ПЕРВЫХ ЗНАКОВ МАҲАЛЛИ И ТРАДИЦИЙ  
ХОЗЯЙСТВОВАНИЯ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА**

**REFLECTIONS ON THE APPEARANCE OF THE FIRST MAHALLA SIGNS AND  
MANAGEMENT TRADITIONS IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN**

Tolibboyev Muxtorjon Qosimjon o'g'li 

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada bronza davridan arablar bosqiniga qadar o'zbek mahallasining tarixiy-etnografik ildizlari va o'ziga xos xususiyatlarni yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlarga ko'ra tahlil qilingan. Turonzaminda bugungi mahalla deb nomlaydigan jamoaviy institut azaldan mavjud bo'lgan va u aynan mahalla deb atalmagan bo'sada, xuddi shu shakldagi hududiy birliliklarni uchratish mumkin. Hududimizdag eng qadimiy shahar tipidagi manzilgohlardan boshlab keyingi davrlarda mahallaning tarixiy-taraqqiyot bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy birlashma sifatida shakllanishi, rivojlanishi va boshqaruvga xos bo'lgan an'analarini bayon etilgan. Shuningdek, mahalla tipidagi ilk ma'muriy hududiy birliliklarda ijtimoiy hayat tarzi va uning vazifalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Аннотация**

В данной статье на основе письменных источников и археологических исследований анализируются историко-этнографические корни и особенности узбекского соседства от бронзового века до арабского нашествия. В Туронзамине с древних времен существует коллективное учреждение, называемое сегодняшней махаллей, и хотя оно не называется махаллей, но можно встретить территориальные единицы такой же формы. Начиная с древнейших поселений городского типа нашего региона, описаны традиции формирования, развития и управления махалли как социально-экономического объединения на этапах исторического развития. Также даны сведения об образе общественной жизни и ее задачах в первых административно-территориальных единицах квартального типа.

**Abstract**

*This article analyzes the historical-ethnographic roots and specific features of the Uzbek mahalla from the Bronze Age to the Arab invasion based on written sources and archaeological research. In Turonzamin, a collective institution called today's mahalla has existed since ancient times, and although it is not called a mahalla, territorial units of the same form can be found. Starting with the most ancient city-type settlements in our region, the traditions of the formation, development and management of the mahalla as a socio-economic association in the stages of historical development are described. Also, information about the way of social life and its tasks in the first administrative territorial units of the mahalla type is given.*

**Kalit so'zlar:** mahalla, oqsoqol, "Avesta", Sopollitepa, jamoa, oila, Ayozqal'a, Qiziqqal'a, Narshaxiy, ko'y.

**Ключевые слова:** махалля, старейшина, "Авеста", Сополлитепа, община, семья, Аёзқалъа, Қизиққалъа, Наршахий, кўй.

**Key words:** mahalla, elder, "Avesta", Sopollitepa, community, family, Ayozkala, Qiziqkala, Narshakhi, koy.

**KIRISH**

Vatanimizda azal-azalda qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlar e'zozlanib kelingan. Yoshi ulug'larga bo'lgan hurmat, jamoaning o'zaro yordami, birdamlik hamda boshqa asriy o'zbek xalqi xos fazilatlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlatning kichik va asosiy bo'g'ini hisoblangan mahalla an'anaviy boshqaruvi o'zbek xalqi milliy madaniyatida mustahkam o'rinn egallagan. "Mahalla"<sup>22</sup> so'zining mohiyatini yoritadigan bo'lsak, bu Turonzamin

<sup>22</sup> Mahalla arabcha "mahallun" so'zidan olingan bo'lib, fuqarolar yashaydigan joy, o'rinn, makon degan ma'nolarni anglatadi.

## TARIX

hududida shuningdek, asosan musulmon aholi vakillaridan tarkib topgan davlatlarda o'troq xalqlarning ma'muriy hududiy birlik, viloyat va shaharlarning bir qismida istiqomat qiluvchi kishilar jamiyatidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Maqolada O'zbekiston hududida mahallaning bronza davridan to arablar hukmronligi boshlangungacha bo'lgan davrda tarixiy ildizlari, uning ilk belgilari oid masalalar alohida o'rinnegallaydi. Ilk yozma manba "Avesta"da ilk jamoalarning yashash tarzi va boshqaruviga xos ma'lumotlarni arxeologik materiallarga solishtirish orqali eng qadimgi davr kishilarning mahalla tipidagi birlashmalari haqida ma'lumot keltiriladi. Shu bilan birga mahallaning jamiyat ijtimoiy hayoti va boshqarividagi ahamiyati haqida A.Asqarov, O.Bo'riyev, A.Ashirov, F.Tolipov, Sh.Shaydullayev, A.Anorboyev, I.Jabborov kabi olimlarning asarlarida alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur maqolani yozishda tarixiy-tizimlilik, xronologik yondashuv hamda qiyosiy-tahlil usullaridan foydalanilgan.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Mahalla muayyan kichik hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmasi bo'lib, unda kishilar faqat qo'ni-qo'shnichilik rishtalari bilan emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib qoida, ma'naviy axloqiy qadriyatlar bilan o'zaro bog'langan [2.] va faqatgina joylashuv nuqtai nazaridan emas, balki o'ziga xos an'analar, qadriyatları, ichki qonun-qoida, tartib intizomi asosida shakllangan, kishilarni jamlash xususiyatiga ega ijtimoiy birlashmadir. Ushbu mahalla boshqaruv an'anasi o'zbek davlatchilik tarixi taraqqiyotidagi o'ziga xos tizim bo'lib, zamonlar osha sayqallangan holda milliy boshqaruvimizning birlamchi va bosh bo'g'ini o'laroq faoliyat olib bormoqda.

Turonzamin tarixida ilk yozma manba hisoblangan "Avesta" kitobida jamoaviy munosabatlardan masalalariga batafsil to'xtalib, jamiyatning eng kichik mikroboshqaruv ko'rinishlarini o'zida aks ettirgan. Ushbu manbada jamiyatning birlamchi iqtisodiy asosi, ijtimoiy tarkibi oila nmana, urug'-jamoa vis, qo'ni-qo'shni jamoa varzana, qabila zantu, ma'lum hudud yoki davlat esa dax'yu deb atalgan va ular ma'lum hudud doirasida amal qilganlar [3.]. Ko'rinib turibdiki nmana "Avesta" jamiyatining ilk bo'g'ini bo'lib, ota urug'idan iborat bo'lgan patriarchal oila hisoblangan. Ushbu oilalarning kamida o'n beshtasi birlashgan holda urug' jamoasi ya'ni visni tashkil etgan [2.]. Shuningdek, akademik Ahmadali Asqarovning qayd etilishicha: "vis jamoalar xususiy xarakterga ega bo'lgan, ya'ni ushbu urug' jamoasida ilk bor xususiy mulk, o'zlashtirilgan yerga xususiy egalik qilish paydo bo'ldi. Bu jarayon vis jamoalar har biri o'z urug'idan ajrab chiqqan juft oilalar o'z kuchi va imkoniyatidan kelib chiqib, daryolar va soylar quyi havzalarida tegishli miqdorda yer-ekin maydonlarini o'zlashtirib, xususiy yer-mulk egasiga aylanishi natijasida amalga oshdi [4.]. Har bir hudud doirasida o'z boshqaruviga ega bo'lib, ularning boshqaruvchi rahnamosi "Pati" deb yuritilgan. Misol uchun, nmananing boshlig'i nmanapati deb nomlangan. Yana shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, zardushtiyarda jamoaviy o'ziga xos an'analar yo'lga qo'yilgan hamda jamoanining ichki hayoti ma'lum qonun-qoidalar asosida qurilgan. Jamoanining har bir a'zosi ijtimoiy muhitda o'z o'rniga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu davrda mahallaning kuchi kishilarning ulg'ayish yoshini belgilashda, nikohni amalga oshirishida namoyon bo'lgan. Farzandni ulg'ayish yoshi jamoa kengashlari tomonidan aniq belgilab qo'yilgan. Xususan, zardushtiyalar jamoasining to'laqonli a'zosi bo'lishining sharti shuki, balog'atga yetib, o'n besh yoshga to'lgandan so'ng yigitlar jamiyatning teng huquqli a'zosiga aylanigan [1.]. Bu jarayon alohida marosim sifatida amalga oshirilgan ya'ni, ushbu jamoa a'zosiga maxsus kamar (kusta) va ust kiyim kiyishi bilan nishonlangan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, zardushtiylik jamoasida oila qurishga nisbatan ham e'tibor qaratgan. O'n yetti yoshga to'lgan erkaklar uylanish huquqiga ega bo'lishgan. Jamiyatda balog'atga yetgan yigit surriyod qoldirish imkoniga ega bo'lsa-yu, uylanmasa jamoa tomonida jiddiy chora ko'rilgan, ya'ni unga tamg'a bosilgan va uni yomon otliq qilish maqsadida beliga temir kamar bog'lab yurishga majbur qilingan [5.]. Jamoalardagi ichki tartib-intizomning saqlanishi jamoaviy munosabatlarni mustahkamlagan. Ko'rinib turibdiki, Avesta jamiyat Turonzamin hududida olis o'tmishda mahallaga xos belgilariiga ega bo'lib, qo'shnichilik jamoasining birlamchi shakli "Avesta"dan o'z aksini topgan.

O'zbek mahallasining mazmun mohiyati, an'anaviy tarixidan kelib chiqqan holda yetti qismdan iborat bo'lgan tarixiy taraqqiyot bosqichlarga bo'linadi. Dastlabki bosqich sifatida so'nggi bronza davri, ya'ni II ming yillik oxirlaridan to milodiy VIII asrgacha, ya'ni yurtimizni arablar istilo qilgan vaqtgacha belgilangan [6.]. Ushbu bosqichning aynan bronza davridan boshlanishiga sababi

shuki, Avesta kitobi yaratilgan dastlabki jamiyatni o'troq chorvador va dehqonlardan tarkib topgan patriarxal oilalar birlashmasi hisoblanadi. Xronologik jihatdan u bronza davriga to'g'ri keladi [7.]. Shuningdek, qadimshunos olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan manzilgohlarda moddiy madaniyatning aks etganligi bilan izohlanadi.

Bronza davrining yodgorligi bo'lgan Surxondaryo vohasidagi Sopollitepada mahallaning tarixiy ildizlarini ko'rish mumkin [8.]. Akademik Ahmadali Asqarovning tadqiqotlariga ko'ra, Sopollitepa manzilgohida oltmishta kichik oiladan iborat sakkizta katta patriarxal oilalarning a'zolari yashagan. Bu davr Sopollitepa madaniyatining rivojlangan bosqichi bo'lib, uch qator mudofaa devori bilan o'rabi olingan. Sopollitepa arxeologik qazishma tadqiqoti shuni ko'rsatadi, ushbu qishloq aholisini faqatgina jamoaviy aloqalar emas balki, ishlab chiqarish ya'ni, moddiy manfaatlar asosida birlashtirgan. Aholining iqtisodiy asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Shu bilan birgalikda aholining kundalik vazifasi asosan oziq-ovqat yetishtirishga yo'naltirilib, shu asosida hunarmanchilikning kulolchilik, bronzadan qurollar yasash, zargarlik, to'quvchilik va boshqalar tarmoqlari rivojlangan. Xususan, mahallalarda hunarmandchilikning to'quvchilik tarmog'i ham rivoj topib, ba'zi xonodon xonalari to'quvchilik ustaxonasi, ishlab chiqarish sifatida ishlataligan, bu esa o'z o'rnida ayollarning mehnati bilan bog'liq jarayon hisoblangan. To'quvchilik ishlarini bajarish uchun maxsus hudud yoki xonalar ajratilmagan, to'quv turar-joy binolari ichida amalga oshirilgan [9.]. Bundan kelib chiqadigan bo'lsa, turar joy binolari ham kundalik hayot kechirish ham iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda muhim hisoblangan bo'lishi mumkin. Hudud suv tanqisligiga uchragach, Sopollitepadagi demografik portlash aholini katta qismini Jarqo'ton tomonga ko'chib ketishga majbur qiladi [4.]. Sopolli madaniyati davrida aholining dehqonlar va hunarmand vakillari bir-birdan ajralmagan holda birgalikda istiqomat qilishgan. Davrlar o'tishi bilan aholining Jarqo'ton manzilgohiga ko'chib o'rashishi natijasida, ya'ni ilk shahar ko'rinishidagi manzilgohlar shakllanada boshlagan davrda hunarmandlar mahsulotiga bo'lgan talab oshib ketadi. Bu esa ularning alohida alohida yashashlariga bevosita turtki bo'lgan deyish mumkin [10.]. Bu holat hunarmand jamoalari yashaydigan alohida mahallalarning vujudga kelishiga zamin yaratdi va hunarmandchilik sohasida sulolaviy yetuk mutaxassislarni yetishib chiqishiga olib keldi. Shu tariqa dastlabki kasb-korga asoslangan mahalla jamoalari shakllana boshladi.

Sopollitepada ham, Jarqo'tonda ham jamoaviy boshqaruvning o'ziga xos shakllari bo'lgan. Har bir oilaning oqsoqoli va umumurug'ning alohida oqsoqoli mavjud edi. Oqsoqollar haqiqiy demokratik prinsiplar asosida saylangan. Ular ushbu lavozimga saylanishi uchun bir qancha xislatlarga ega bo'lishi talab etilgan. Xususan, Oqsoqol uzoq yillar mobaynida jamoada halol mehnat qilib obro-e'tibor qozongan, yuksak ijtimoiy-siyosiy mavqeiga ega usta mirishkor omilkor dehqon yoki tadbirkor hunarmand va mohir savdogar, shaxsiy axloqi va odobi, ma'naviy-axloqiy yuksakligi bilan jamoasining pir-u ustozi bo'lib, bir vaqtning o'zida jamoasining diniy rahnamosi ham hisoblangan. Ya'ni jamoa o'zlarini boshqarib turadigan rahbarni na'muna sifatida e'tirof etda oladigan shaxslardangina saylasganlar. Bu jarayon jamiyatdagi sog'lom muhitni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Arxeolog olimlarimizning qazishma ishlari natijasida Jarqo'tondagi beshinchi tepaligidagi turar joy binosidan topilgan ashyolar orqali xulosa qiladigan bo'lsak, uni ushbu hudud oqsoqoli-kadxudosi, ya'ni diniy rahnamosi hisoblangan. Sababi shuki, bu turar-joy majmuasi ibodatxona ro'parasida joylashganligidan shunday xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, u jamoada zargarlik va metalluriya sohasining pir-u ustozi bo'lishi mumkin [4.9]. Ushbu ma'lumot yuqorida keltirilgan fikrlarni tasdiqlaydi. Mahallaga xos boshqaruv tizimining mavjudligini bu manzilgohlardan jamoaviy muhrlarning topilishi yana bir dalil sifatida keltirish mumkin. Sopollitepadan vis jamoasining bronzadan yasalgan muhri topib o'rganilgan va u sakkizta oila (mahalla)ni birlashtirib turgan boshqaruv mavjud ekanligini ko'rsatadi. Muhrda 8 xilda ilohiyashtirilgan hayvonlarning tasvirlanishi har bir hayvon bir mahallaning totemi bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi [10.]. Muhrning bronzadan yasalganligi ushbu buyumni yasay oladigan usta hunarmandlar shakllangani dalolat beradi. Boshqa hududlardan ko'plab muhrlar topib o'rganilgan va doiradagi mahallaga xos boshqaruv borligini anglatadi va ularning barchasida mahalla boshqaruvi mavjudligini anglatadi, lekin aynan bu kabi muhrning topilmaganligi ushbu muhrning faqat Sopollitepa uchungina xosligini anglashamiz qiyin emas. Yana masalaning boshqa tomoni shundan iboratki, jamiyat hayotida katta oilalar markaziy o'rinn tutgan. Yetakchilik va boshqaruv odatda markazsizlashtirgan. Bu nima degani? Bu mahalliy elita yoki oqsoqollar o'z

## TARIX

jamoalarida hokimiyatni mustaqil amalga oshirganlar. Bu esa yuqorida keltirilgan jamoaviy muhrning topilganligida o'z isbotini topadi. Ya'ni muhr bu mustaqillikning ramzi o'laroq boshqaruvda foydalilanigan bo'lishi mumkinligi ehtimoldan holi emas.

Jamiyatda uy-joy atamasi patriarchal oila (nmana) bilan bir ma'noda qo'llanilgan. Ya'ni u jamoada katta patriarchal oila yoki uy xo'jaligini anglatib turgan. Oila boshliqlari nafaqat iqtisodiy ijtimoiy masalalarni tartibga solgan, balki ichki muhitda oilaning diniy amallarni bajarilishini nazorat qilgan. Xuddi mana shu vazifalarni kengroq doirada urug' oqsoqollari va qabila yo'lboshchilari amalga oshirgan [11.]. Xorazm vohasida ham jamiyatda jamoa a'zolarining hayotiy zarur manfaatlarini amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiy boshqaruv ustunlik qilgan. Eng muhim masalalar urug' vakillarining umumiyligi yig'ilishida hal etilgan. Urug' boshliqlari va qabila yo'lboshchilari katta oilalar va urug' jamoalarining vakillari yig'inida saylangan [12.]. Boshqaruv an'anasi quyidan yuqoriga qadar aynan bir xil shaklda amalga oshirilgan.

Keyingi davrlarda turli hududlardan topilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida, mintaqada kichik jamoalarning boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini ko'rishmiz mumkin. Xususan miloddan avvalgi X-VII asrlarga oid Surxondaryo hududidan topib o'rganilgan Kuchuktepa yodgorligida kichik patriarchal oilalarni birlashtirgan ko'p xonali uylardan iborat xo'jalik va turar joy majmuasi tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda, Kuchuktepa harbiy-ma'muriy hamda diniy markaz sifatida ham xizmat qilgan [7.]. Shuni aytishimiz kerakki, ushbu markazlarning topilishi mahalla bu faqat qavm-u qarindoshlik rishtalari bilan bog'laydigan joy emas, balki ular umumiyligi g'oyalar asosida hamda mudofaa, ya'ni himoyalanish ehtiyoji natijasida birlashgan kishilar jamiyatni degan fikrni tasdiqlaydi.

Temir davrida Turon hududida Marg'iyyona, Baqtriya va So'g'dning qadimgi dehqonchilik tumanlarining tuzilishi turlicha bo'lgan. Ko'p sonli aholi yashash manzilgohlari tog' yonbag'irlarida, soy bo'y lab, daryolarning quyisi qismida joylashgan kichik vohalar tumanlarida tashkil topgan. Har bir voha-tuman tarkibida o'ntadan yigirma beshtacha aholi manzilgohlari mavjud bo'lgan [11.]. Yuqorida keltirilgan Sopollitepa yoki Jarqo'ton singari manzilgohlarga solishtirganda mahallalarda kishilarni uyushib yashashi uy-joylar misolida kengayib borganligini ko'rsatadi va aholining hamjihatlikda uzoq muddat yashab kelayotganligini tasdiqlaydi.

VII-VI asrlarga kelib qo'shnichilik jamoalari jamiyatning asosiy tayanchiga aylandi. Endilikda katta oilalar o'zlarining xususiy mulklari, jumladan, chorva mollari, qishloq xo'jaligi zahirasi hamda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lgan iqtisodiy mustaqil jamoalarga aylandi [13.]. Bu davrda mintaqqa aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik-chorvachilik hisoblanib, dehqonchilik vohalarida istiqomat qilgan aholi vakillarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumida jamoa a'zolarining vazifalariga ko'ra taqsimot qilinganligi qishloq-shaharlarda tartibli boshqaruvga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy tarkibida o'ziga xos guruqlar eng birinchi navbatda ishlab chiqaruvchi qatlam – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, binokorlar mavjudligini belgilaydi. Shuningdek, ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan harbiy (mudofaa) vazifalar hamda diniy marosimlarni amalga oshirgan (oqsoqollar, kohinlar) shaxslarning ham jamoada muhim ekanligini ham ta'kidlash kerak [11.]. Jamoa doirasida har bir toifaning amalga oshiradigan yumushi ma'lum bo'lgan. Bu esa ushbu davrda bir mikrohudud doirasida o'ziga xos tizim vujudga kelganligini hamda mahallaga xos bo'lgan ilk an'analar ancha mustahkam ildiz ota boshlaganini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Toshkent vohasida ham dastlabki qishloqlar vujudga kela boshlagan. Shu davrlardagi qishloq-mahallalarning ijtimoiy turmush tarzi va kundalik hayotiga ham to'xtalib o'tsak, Shoshtepaning Jo'nariq bo'yidagi qishloq tadqiq etish natijasida uning umumiyligi qiyofasi, xo'jaligi va turar-joylari, xullas moddiy madaniyatining umummanzarasi to'laligicha namoyon bo'ladi. Shoshtepa aholisining turmush tarzidagi muhim jihatlardan biri chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlardan tashqari, yilqichilik va tuyachilik bilan ham shug'ullangan. Ikkinci jihat esa dehqonlar hayotida sodir bo'lgan yirik o'zgarish ya'ni sug'orma dehqonchilikka o'tish bo'ldi. Aholi Chirchiq daryosidan ajralib chiquvchi Salor va Qorasuv hamda ulardan ajralib chiquvchi Jo'n anhorida sug'orish tarmog'i sifatida foydalangan [14.]. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib Shoshtepa qishloqlari o'troq aholisi ancha madaniylashgan bo'lganligi tasdiqlaydi.

Farg'ona vodiysidagi miloddan avvalgi II – milodiy I asrlardagi qadimgi Parkana davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida xitoy manbalari batafsil ma'lumot beradi. Farg'onada davlat ahamiyatiga molik masalalarni oqsoqollar kengashi muhokama qilgan va muammoli masalalarni

yechim topgan. Jumladan, urush e'lon qilish, sulk tuzish, zarur bo'lganda hukmdor taqdirini ham hal qilgan. Masalan, Farg'onaning Xitoy bilan to'rt yillik urushida so'ng oqsoqollar kengashi Xitoy bilan sulk shartnomasini imzolaydi. Shuningdek, ular hukmdorlarni saylash va uni almashtirish huquqiga ham ega bo'lgan [15.]. Ushbu ma'lumotdan ko'rinish turibdiki, Farg'onada hukmdor yakka hokim bo'Imagan, u oqsoqollar kengashiga bo'ysungan degani ham emas, balki mustaqil davlatni boshqargan. Lekin, ichki va tashqi siyosatda qonun doirasida ish yuritishi kerak edi. Xuddi shunday siyosiy jarayon ilk o'rta asrlarda So'g'd podsholigida ham mavjud bo'lgan [16]. So'g'd mulklarida ham ixshidlar oqsoqollar kengashiga hisobot beruvchi cheklangan hokimiyatga ega edi. Eramizning dastlabki asrlarida taraqqiy topgan Kushon davlati o'ziga xos ma'muriy hududiy birliklar asosida boshqarilgan. Jumladan, Ayozqal'a, Qiziqqal'a, Qo'narliqal'a singari aholi yashash qo'rg'on-qishloqlari davlat boshqaruvining quyi bosqichi mavjudligidan dalolat beradi. Xususan, Ayozqal'a yodgorligida qishloqlar milodiy II asrda vujudga kelgan va mudofaa devori bilan o'ralgan, shuningdek dushman xavfi yuzaga kelgan vaqtida qishloq aholisi mudofaa uchun himoyachilarga ko'mak bergen. Ya'ni himoyalanish zarurati odamlarni hamjihatlikda yashashga majbur etganligi va o'zlarining xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yilishiga olib kelgan. Milodiy III-IV asrlarda mavjud bo'lgan yana bir qadimiy shahar Tuproqqa'l'a shahrida joylashgan qishloq-kvartallardagi tor ko'chalar o'tasida joylashgan hovli-joylar bir-biriga tutashib ketganini ko'rib, ular orasida xuddi devorlar yo'qday ko'rindi. Tutash xovlillardagi xonalarning hisobi ikki yuzga yetishi Tuproqqa'l'ada istiqomat qiluvchi aholi vakillari urug'chilik an'analariga asoslanib avlodma-avlod uzoq muddat aynan bir joyda yashaganliklaridan va ijtimoiy hayotning juda qadimiy shakliga mansub bo'lganligini ko'rsatadi. Kushon davlatining rivojlanish davrida katta urug' jamoa tipidagi mustahkamlangan istehkomlardan, patriarchal turdag'i ko'p oilali jamoalarning ayrim qo'rg'on yoki katta hovli larga ajralib chiqishi ancha kuchaydi. "Katta oilali" jamoalarning ajralib chiqish jarayoni quzdorlik tuzumining yemirila boshlanligini va ilk dehqon xo'jaliklarining vujudga kelayotganini ko'rsatadi [17.]. Boshqa hududlarda jumladan, So'g'dda Qang' davlati inqirozi natijasida milodiy III-IV asrlarda yer egaligining dehqon mulkchiligi shaklanishini tezlashtirdi. Jamoadagi erkin dehqonlar, zodagonlar boyishi natijasida dehqon jamoalari ularga mulkiy bog'lanib, mahalliy dehqonlardan iborat qishloqlarning vujudga kelishiga olib keldi [16]. Avvallari qishloq va mahallalarning eng nufuzli kishilari oqsoqollar bo'lgan bo'lsa, endilikda dehqonlar joylarda asosiy boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'la boshladi. Shu tariqa qishloq-mahallalarning tuzilishi ilk dehqon xo'jaliklari boshqaruvdag'i ma'muriy-hududiy birlik o'laroq bo'y ko'rsata boshladi.

Umumiy jihatda olganda mahalla Turonzamin aholisining dastlabki ijtimoy birlashmasi, ma'muriy-hududiy uyushmasi sifatida urug' jamoasi davridan, zardushtiylik davrining ota-urug'i jamoasiga, undan so'ng "naf"<sup>23</sup> qo'ni-qo'shnichilik birlashmasiga, ilk o'rta asrlardagi kvartal (mahalla) jamoalariga aylangan [7.]. Arablar o'lkamizni bosib olgandan so'ng shaharlarning kichik birliklarni belgilash uchun mahalla atamasi keng qo'llanila boshlandi. Dastlab bu atama arablar tomonidan qishloqlarga nisbatan ishlataligan. Mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida (X asr) Buxoroda 1100 yil muqaddam mahallalar bo'lganligini qayd qilib o'tgan. Ushbu asarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, "mahalla" atamasi ilk bora kichik hududiy birliklarni belgilash uchun Narshaxiy tomonidan qo'llanilgan. Muallif shaharning shahristoni alohida devorlar bilan o'ralgan 3-4 mahalladan iborat ekanligini qayd etadi [18.]. Demak Buxoro shaharining markaziy qismi kichik ma'muriy birliklar orqali idora etilgan va shu vaqtida e'tiboran mahalla atamasi faol komponent sifatida turk tilli xaqlar orasida qo'llanila boshlangan.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, arablar o'lkamizni bosib olgandan so'ng hamda mintaqada islom dini keng tarqalishi boshlashi natijasida arab tili qo'llanila boshladi. Xususan turli turkiycha nomlar arabcha atama va jumlalar bilan nomlana boshladi. Ba'zi hollarda ham turkiycha ham arabcha nom birday qo'llanilganligini uchratishimiz mumkin. Mahalla nomi turkiychada "ko'y" iborasi orqali ifoda etiladi. Shu bilan bir qatorda ko'y atamasi mahalla so'zining ma'nodoshi sifatida XVIII asrga qadar amalda bo'lgan. Turon hududidagi shahar qishloqlarda boshqaruvning asosiy bo'g'ini, kichik ma'muriy-hududiy birliklarni mahalla deb atalishi bizda mahalla an'anasing arablarning o'lkadagi hukmronligi o'rnatalishi, xususan arablar tomonidan "kashf" etilgan jarayon

<sup>23</sup> Arablar bosqiniga qadar So'g'd hududidagi qishloq va mahalla jamoasining nomlanishi.

## TARIX

emas. Ya'ni o'zbek xalqiga xos bo'lgan mahallachilik an'anasi, urf-odati hamda boshqaruvi tizimi arablar bosqiniga qadar bo'lgan bir necha ming yilliklar avval paydo bo'lganligi, arablar tomonidan uning shakl-u shamoyili o'zgarmaganligini, o'zgarish faqat nom bilan bog'liqligni qayd etish zarur. Boshqaruvning mana shunday tamoyili keyingi davrlarda, xususan o'rta asrlar, yangi davr, ayniqsa, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Bundan ko'rinish turibdiki, mahallaning tarixiy-etnografik ildizlar ancha chuqur ekanligi va yuz yilliklar davomida tarixiy tajriba hamda boy moddiy-ma'naviy qadriyatlar o'laroq avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avesta. Yasht kitobi // Mirsodiq Is'hoqov tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001.
2. Bo'riyev. O. Mahalla – milliy tarixiy institut. – Toshkent: Yanginashr, 2012.
3. Tolipov F. Nurota vohasi aholisi oilaviy turmush tarzida jamoa an'analari (XIX asr oxiri - XX asr birinchi yarmi). Diss. Nomzod. Toshkent. 2006.
4. Asqarov A. Qadimgi eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiya lar tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2023.
5. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent. 2007.
6. Ishquvvatov V, Tolipov F. Mahalla: o'tmishda va bugun. – Toshkent: 2014.
7. Филанович М.И. О некоторых аспектах истории общины в древности и происхождении «махалла» // Узбекистон тарихи. – 2003. – № 2.
8. Асқаров А. Сапаллитепа. Ташкент. 1973
9. Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977.
10. Shaydullayev Sh. O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari. (Baqtriya misolida). Diss. Doktorlik uchun. Samarcand. 2009.
11. Abdullayev U. O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi: t.f.d uchun diss. – Urganch – 2019.
12. Matyakubov X. Xorazm vohasi bronza va ilk temir davri tarixi: phd uchun diss. – Toshkent, 2018.
13. Садуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – Ташкент:Фан.1987.
14. Muhammadjonov A. Qang' – qadimgi Toshkent va Toshkentliklar. – Toshkent: Sharq. 2009.
15. Anorboyev A. Farg'onanining qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni. – Toshkent: Sharq. 2022.
16. Otaxo'jayev A. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-so'g'd munosabatlari. – Toshkent: Art-flex. 2010.
17. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. – Toshkent: O'zbekiston. 2012.
18. Narshaxiy Abu Bakr Muhammad ibn Jafar. Buxoro tarixi. – Toshkent: Fan, 1966.